



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025



**ONTOLINGVISTIKA VA PRAGMALINGVISTIKA
MUNOSABATIDA DEYKTIK BIRLIKLARNING O'RNI
THE ROLE DEICTIC UNITS IN ONTOLINGUISTICS AND
PRAGMALINGUISTICS**

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/DUTH9913

Qurbonova Munavvara Abdujabborovna
*Filologiya fanlari doktori, professor,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti,
munavvara2013@yandex.ru*

Annotatsiya. Maqolada ontogenez davrida shaxs, makon, zamon kabilarga ishora qiluvchi til birliklarining o'zlashtirilish darajasi haqida so'z boradi. Unda jahon tilshunosligiga oid ilmiy manbalarda bolalar tomonidan deyktik birliklarning o'zlashtirilish bosqichlari xususida ilgari surilgan qarashlar qayd etilgan. Ular nutqida deyksis hodisasining yuzaga kelish sabablari izohlangan. Bu boradagi tadqiqotlarning ontolingvistika va pragmalingvistika munosabatini aniqlash, verbal muloqot jarayonida ishora vositalarini to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, Kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pedagogika kabi fanlarni rivojlantirishdagi ahamiyati bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ontogenez, bolalar nutqi, ontolingvistika, pragmalingvistika, deyksis.

Annotation. The article discusses the degree to which linguistic units referring to person, space, and time are acquired during ontogenesis. It highlights views presented in international linguistic studies concerning the stages of children's acquisition of deictic units. The reasons for the emergence of the deixis phenomenon in their speech are explained. The study also outlines the significance of determining the relationship between ontolinguistics and pragmalinguistics, developing methodological guidelines for the proper use of reference means in verbal communication, preparing practical recommendations, and its importance for the development of disciplines such as cognitive linguistics, psycholinguistics, and pedagogy.

Keywords: ontogenesis, children's speech, ontolinguistics, pragmalinguistics, deixis.

Nutq ontogenetik faoliyatining tadrijiy taraqqiyotida deyktik (voqelik va uning elementlariga ishora qiluvchi) birliklar muhim vosita vazifasini bajaradi. Deyktik birliklar inson lisoniy qobiliyatining rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutadi. Ular shaxs, narsa-predmet, makon, zamon, miqdor, harakat-holat kabilarga ishora qilib, bola tomonidan o'zi va atrofdagilarning anglanish darajasini aniqlash



imkonini beradi. Bolada deytik birliklardan foydalanish ko‘nikmasining shakllanishi uning til orqali ijtimoiy muloqotga kirishish bosqichi hisoblanadi.

Tadqiqotlarda 2 yoshli bolalar nutqida shaxsga ishora qiluvchi til birliklarining qo‘llanila boshlashi aniqlangan. Biroq ularni kontekstga muvofiq tarzda tushunish holati 3 yoshdan so‘ng barqarorlashuvi ta‘kidlangan [Moyer, Harrigan, Hacquard, Lidz, 2015: 3-5].

Haqiqatan ham, ontogenez davrida bolalar tomonidan dastlab shaxs deyksisini hosil qiluvchi til birliklari o‘zlashtirilib, nutqiy faoliyatga tatbiq etiladi. Bu o‘rinda bolalar tomonidan ishlatiladigan ishora birliklari ular nutqining o‘ziga xos jihatlari aks ettirishi, ba‘zan ushbu holat 1-1,5 yoshli bolalar nutqiy muloqotida ham kuzatilishi, ammo mazkur yosh davridagi bolalar kommunikativ faoliyatida ayrim deytik elementlar til me‘yorlariga nomuvofiq shaklda ifodalanishini nazardan qochirmaslik lozim bo‘ladi.

T.Mizunoning ushbu masalaga oid maqolasida bolalarning “men/sen/u” kabi shaxsga ishora qiluvchi birliklardan foydalanish jarayonidagi nutqiy xatolar tahlil qilingan. Uning qayd etishicha, bu holat asosan 2-4 yoshli bolalar nutqida tez-tez yuz beradi [Mizuno, 2022: 77-93].

Shaxsga ishora qiluvchi birliklarni to‘liq o‘zlashtirish ijtimoiy ongning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, bu holat 4–5 yoshli bolalar nutqida yuzaga keladi. Chunki bola shaxs deyksisini hosil qilishi uchun faqat obyektни ko‘rish emas, balki subyekt–adresat rollarini farqlashni ham o‘rganishi kerak. Bu esa ijtimoiy kognitiv va metaperspektiv tafakkurni (shaxsning til va nutqdagi subyektiv qarashlarni idrok etish, ularni tahlil qilish va kontekstda to‘g‘ri qo‘llashga qaratilgan kognitiv-lingvistik faoliyati) talab etadi [Smolnik, 2023: 12-14].

Bolalar tomonidan shaxsga ishora qiluvchi birliklarning o‘zlashtirilishi ularning egotsentrik dunyoqarashdan ijtimoiy yo‘naltirilgan nutqqa o‘tishi, kommunikativ faoliyatda “men” va “sen” tushunchalarini ajratib olishi bilan bog‘liqdir. Bu jarayon bolaning ijtimoiy munosabatga kirishish darajasini belgilashga xizmat qiladi [Böhler, 1990: 103]. Demak, lisoniy ijtimoiylashuv jarayonida shaxsga ishora qiluvchi verbal birliklar muhim vosita vazifasini o‘taydi. Bu jarayonda ayniqsa, kishilik olmoshlarining faol iste‘molda bo‘lishi kuzatiladi.

Shaxs deyksisini shakllantiruvchi birliklar muayyan nutqiy vaziyat yoki kontekstda ijtimoiy holatga ham ishora qilishi mumkin. R.Davlatova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda bu holatning yuzaga kelish sabablari quyidagicha izohlangan: “Kishilik olmoshlari ijtimoiy holat va shaxs deyksisini shakllantiruvchi vosita sifatida murakkab deytik xarakter kasb etadi. Ular bir vaqtning o‘zida nutq ishtirokchilariga ishora qilib, ham shaxs deyksisini, ularning o‘zaro munosabatlarini, ijtimoiy omillarni ko‘rsatib, ijtimoiy holat deyksisini ham yuzaga chiqaradi” [Davlatova, 2020: 67]. F.Smolikning xulosasiga ko‘ra, bolalar nutqida ijtimoiy deyksis birliklari 5-7 yosh va undan keyingi davrlarda asta-sekin shakllanib boradi [Smolik, 2023: 12-14]. Biroq bunday qarash nisbiy xarakterga ega bo‘lib, turli millat bolalari nutqida deyksisning voqelanishida yosh davriga ko‘ra ayrim tafovutlar ko‘zga tashlanadi. Chunki ishora birliklari bola tomonidan



semantik, pragmatik va madaniy komponentlar uyg‘unligida o‘zlashtiriladi. O‘zbek bolalarining ijtimoiy holat deysisidan foydalanish jarayoni 3-4 yoshdan boshlanadi. Bizningcha, ular nutqida bu turdagi ishora birliklarining erta shakllanishi milliy madaniyatga xos hurmat ifodasi bilan bevosita bog‘liqdir. Bolaning “men” va “sen” tushunchalarini farqlay boshlashi uning kognitiv va emotsional jihatdan o‘zini anglash bosqichiga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda deysis nafaqat lingvistik, balki psixologik funksiyani ham bajaradi.

Ilmiy manbalarda bolalarning 18–24 oyda demonstrativ deysisidan (so‘zlovchi tomonidan nutq jarayonida muayyan predmet, shaxs yoki joyga ishora qilish orqali ifodalangan ko‘rsatish munosabatini bildiruvchi, nutqiy vaziyat, kontekst bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan til hodisasi) faol foydalanishni boshlashlari haqida ham to‘xtalib o‘tilgan Gonzalez (2020) 5–6. Demonstrativlar bolalar nutqiga oid dastlabki deiktik elementlar bo‘lib, ular so‘zlovchiga “yaqin–uzoq”, “ko‘rsatish–farqlash” kabi fazoviy munosabatlarni ifodalash imkonini beradi. Chunki ular bolaning idrok va motor tajribasiga asoslanadi— bola narsani ko‘rish, ushlab yoki ko‘rsatish orqali “bu” va “u” olmoshlarining semantik farqini o‘rganadi. Ya’ni ular sensor-motor bosqichdagi til shakllaridir [Diessel, Monakhov, 2023: 922-953].

Makonga ishora qiluvchi birliklardan foydalanish bolada atrof-muhitni ko‘rsatish va idrok etish qobiliyatining shakllanayotganidan dalolat beradi [Tomasello, 2003: 146].

Hozir/bugun kabi oddiy zamon deysislarini 2–3 yoshli bolalar nutqida uchratish mumkin, lekin murakkab temporal konstruktsiyalar (masalan, “avvalroq”, “keyinroq”) ular tomonidan kechroq o‘zlashtiriladi. [Glauer, Sixtus, Kachel, Lonnemann, Hildebrandt, 2024]

3–8 yoshli bolalar nutqiga xos deyktik xususiyatlar talqiniga bag‘ishlangan tadqiqotda esa “yesterday” “(kecha)”, “tomorrow” “(ertaga)” singari zamonga ishora qiluvchi so‘zlarning kechroq o‘zlashtirilishi qayd etilgan. Mazkur tadqiqotda to‘g‘ri ta’kidlanganidek, ko‘pincha bolalar yuqorida qayd etilgan birliklarni chalkashtirib qo‘llaydilar. Tadqiqotda ushbu holatning yuzaga kelish sababi “zamon” tushunchasining konseptual jihatdan birmuncha murakkab ekanligi bilan izohlanadi [Tillman, Marghetis, Barner, Srinivasan, 2017: 87-100].

Aksariyat hollarda nutqiy faoliyatda deyktik birliklar imo-ishora vositalari bilan uyg‘un holda ishlatiladi. Shu tufayli ularni tadqiq etish bolada multimodal kommunikatsiya, birgalikda diqqatni yo‘naltirish va ijtimoiy muloqot ko‘nikmalarining shakllanishini ko‘rsatadi [Tomasello, 2003: 189]. Ingliz tilida so‘zlashuvchi bolalar nutqiga oid “this/that” kabi makonga ishora qiluvchi birliklar korpus asosida tahlil qilingan. Bunday yondashuv P.Gonzalez tadqiqotida o‘z aksini topgan. Muallif bolalarda imo-ishora va nutqning uyg‘unlashuvini ham kuzatib, multimodal kommunikatsiyaning (o‘zaro fikr almashish jarayonida bir vaqtning o‘zida bir necha muloqot kanallaridan (nutq, ko‘rish, eshitish, harakat) foydalaniladigan kommunikatsiya shakli) muhimligini ko‘rsatadi [Gonzalez, 2020].



H. Diessel deyktik birliklarni (demonstrativ, lokativ, diskursiv) tipologik jihatdan tahlil qiladi. U bolalarda diskursiv deyktik ishoralar (masalan, “bunday”, “o‘sha gapda”) nutq rivojlanishining keyingi bosqichida paydo bo‘lishi haqida ma’lumot beradi [Diessel, 2003: 369-432].

Mazkur holatlar deyksis hodisasi tadqiqining kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va pedagogika fanlari uchun nihoyatda dolzarbligini anglatadi. Ontogenez davrida deyktik vositalarning o‘zlashtirilish bosqichlarini tahlil qilish orqali til va tafakkurning o‘zaro ta’siri, bola nutqining rivojlanish qonuniyatlari, nutq buzilishlari diagnostikasi hamda ularni bartaraf etish yo‘llari aniqlanadi.

Bolalar tomonidan ishora birliklarining o‘zlashtirilishi ularda pragmatik kompetensiyaning shakllanishiga muayyan darajada yordam beradi. Pragmatik kompetensiya til vositalaridan muloqot vaziyatiga mos tarzda foydalanish, ya’ni so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasida ma’no, kontekst va niyat uyg‘unligini ta’minlash qobiliyatidir. Uning shakllanishida deyktik birliklar nafaqat tilni kognitiv idrok etish vositasi, balki nutqiy vaziyatni boshqarishning faol pragmatik mexanizmi sifatida ham ishtirok etadi. Deyksis hodisasi yordamida so‘zlovchi suhbatdosh diqqatini zarur obyekt, shaxs yoki zamonga yo‘naltiradi, shu tariqa u ongli ravishda kommunikativ strategiyani hosil qiladi.

J. Piaget (1959: 72)ning tafakkur va nutq o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlari shuni ko‘rsatadiki, til orqali voqelikni ifodalashda bola o‘z “nutqiy men”ini shakllantiradi va muloqotdagi rollarni anglay boshlaydi. Bu jarayon aynan deyktik birliklar — “men”, “sen”, “bu”, “shu yerda”, “hozir kabilar” orqali amalga oshadi. Shu tufayli ishora birliklarining o‘zlashtirilishi bola nutqining faqat leksik yoki grammatik jihatdan rivojlanishi emas, balki undagi kommunikativ pozitsiyani idrok etish hamda nutqiy strategiyani tanlash qobiliyatini ham ifodalaydi.

Mazkur masalaga oid tadqiqotlarda bola tomonidan deyktik imo-ishoralarning to‘g‘ri qo‘llanishi ijtimoiy diqqatning birgalikda boshqarilishi va kommunikativ niyatni tushunish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan [Tomasello, Carpenter, Liszkowski, 2007]. Shu jihatdan deyksis bola tomonidan muloqot maqsadini anglash va uni suhbatdosh niyati bilan muvofiqlashtirishda dastlabki pragmatik vosita sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotchilar deyktik imo-ishoralarni bola nutqining ijtimoiy komponenti sifatida tahlil qilib, ularning kontekstni to‘g‘ri talqin etish qobiliyatini shakllantirishga yordam berishini ta’kidlaganlar [Colonnesi, Stams, Koster, Noom, 2010: 352-366]. Shu bilan bir qatorda deyktik vositalar bolaning muloqotga kirishish jarayonida diqqat, xotira va rejalashtirish kabi kognitiv jarayonlarni boshqarishning faol ifodachisi hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, deyktik birliklar nutqiy vaziyatni tashkil etishda kommunikativ strategiyaning markaziy elementi sifatida qaraladi. “Ular so‘zlovchiga suhbatni yo‘naltirish, axborotni kontekstga moslashtirish va suhbatdosh bilan rol muvofiqligiga asoslangan munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Deyksisga xos bu funksional xususiyatlar bolada pragmatik kompetensiyaning shakllanib



borayotgani, ya’ni uning tildan nafaqat ifoda, balki muloqotni boshqarish vositasi sifatida foydalana boshlaganini ham ko‘rsatadi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, bolada til va tafakkurning rivojlanish jarayonida deytik birliklar markaziy o‘rinni egallaydi. Ular orqali bola nafaqat predmet, shaxs va hodisalarni tilda ifodalash imkoniga ega bo‘ladi, balki o‘zining muloqotdagi roli, suhbatdosh munosabati va vaziyatning pragmatik jihatlarini ham anlay boshlaydi. Bu esa deytik birliklarni pragmatik kompetensiyaning shakllanish jarayonidagi asosiy vosita sifatida talqin etish imkonini beradi.

Zamonaviy lingvopragmatik tadqiqotlar [Tomasello, 2007; Colonnaesi, 2010; Kuhn, 2014] deyxsisni bola tomonidan ijtimoiy idrok, diqqatni boshqarish va kommunikativ niyatni tushunish bilan bog‘lab, uni nutqiy pragmatikaning ontogenez asosini tashkil etuvchi mexanizmi sifatida talqin etadi.

Deyksis kichik yoshdagi bolalarda nutqiy kompetensiyani shakllantirish, kommunikativ strategiyalarni o‘rgatish va nutqiy vaziyatni to‘g‘ri talqin qilishni rivojlantirishda asosiy ko‘rsatkich sifatida qaraladi. Shu bois, deytik birliklarning o‘zlashtirilish jarayonini tahlil qilish til o‘qitish metodikasi hamda kommunikativ tilshunoslik uchun keng ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratadi.

Xullas, deyxsis hodisasining mohiyati bolalar nutqining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tadqiq etuvchi ontolingvistika va til birliklarining amalda qo‘llanishiga doir masalalarni talqin qiluvchi pragmatolingvistika munosabatida yorqin aks etadi. Bu ikki sohaning tekshirish obyekti va metodologiyasi turlicha bo‘lsa-da, ularning integratsiyasi tilning ijtimoiy mohiyati, inson tafakkuri va uning muloqot jarayonidagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bühler K. *Theory of Language: The Representational Function of Language*. – Amsterdam: John Benjamins, 1990.
2. Davlatova R. *O‘zbek tilida deyxsis va uning turlari*. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.
3. Diessel H. Demonstratives, Frames of Reference, and Semantic Universals of Space. *Linguistic Typology* 7(3), 2003.
4. Diessel H., Monakhov S. Acquisition of Demonstratives in Cross-Linguistic Perspective. *Journal of Child Language*, 50(4), 2023. 922-953.
5. Glauer R., Sixtus Y., Kachel G., Lonnemann J., Hildebrandt F. Children’s understanding of demonstratives: an experimental study with German-speaking children between 5 and 7 years of age. <https://www.frontiersin.org/journals/psychology/articles/10.3389/fpsyg.2024.1403528/full>
6. González P. *Children’s Acquisition of Spatial Deixis: A Developmental Study of Demonstratives*. PhD Thesis, University of Manchester. Available at: 2020. <https://ethos.bl.uk>
7. Mizuno T., Aoyama K. Development of Person Deixis and Perspective Taking in Child Language. *Journal of Pragmatics*, 187 (2022), pp. 77–93.



8. Moyer, M., Harrigan K., Hacquard V., & Lidz, J. (2015). 2-year-olds' comprehension of personal pronouns. BUCLD Proceedings, pp. 3–5. <https://www.bu.edu/buclid/files/2015/06/Moyer.pdf>
9. Smolnik F. About me, you and her: Personal pronouns are developmentally preceded by mental state language. Journal of Child Language, 2023. pp. 12–14. <https://www.cambridge.org/core/journals/journal-of-child-language/article/12EC1A81343BFD1A0A790CF1C64C4781>
10. Tillman K., Marghetis T., Barner D., Srinivasan M. Today is tomorrow's yesterday: Children's acquisition of deictic time words. Cognitive Psychology, 92 (2017).
11. Tomasello M. Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition. – Harvard University Press, 2003.
12. Colonnaesi C., Stams G., Koster I., Nool, M. The relation between pointing and language development: A meta-analysis. Developmental Review, 30(4) 2010.



MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Shuhrat</i>	O'zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O'zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo'lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O'zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She'riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta'siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov Baxrom, Sharipova Sarvinoz, Istamova Shohista.</i>	O'zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o'rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so'zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o'zbek tili leksik sathiga doir ba'zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O'zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O'zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o'zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92



<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek, Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xulasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177



<i>Utegenova O'g'iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishigi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning o'rganilganlik darajasi hamda turlari	191
<i>Turg'unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o'rni	199
<i>O'ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o'zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o'xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G'aybullayev Erkinjon</i>	O'zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho'lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o'ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o'rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o'zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o'zbek leksik tizimidagi o'rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O'zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o'rni	260
<i>Turg'unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o'rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik	274



	vositalarning o'rni	
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo'chqor Norqobil hikoyalarida xalqona so'zlashuv, ibora va maqollarning qo'llanishi	285
II SHO'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		
<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma'lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o'rni	297
<i>Ruzibayeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O'zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta'limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G'ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma'lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O'zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilyabayev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта	361



	изучения узбекского языка как второго	
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o'rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga ta'siri: XXI asrda yozma va og'zaki muloqotning transformatsiyasi	385
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta'sirchanligini oshirishda sifatlarning o'rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko'p ma'noli so'zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O'rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she'riyati leksikasini chastotali lug'at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug'bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	"Fiziologik xatolar"ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o'ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo'llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o'zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o'rni	443



<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O'zbek tilidagi ayrim fe'l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'zga tili o'quvchilarning nutqini o'stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova Nargizaxon</i>	Tilshunoslarga bog'lab berilgan tomorqa...	477
III SHO'BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O'zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo'ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалия: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509



<i>Otamirzayeva Sug'diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o'zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohijamol</i>	Ingliz va o'zbek tillarida "yaxshilik" va "yomonlik" kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o'xshatishlar tadqiqi	539
<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O'zbek va ingliz xalq maqollaridagi "omad" va "omadsizlik" konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO'BA. O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI VA O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Akalin Ahmet</i>	<i>Kültür Taşıyıcısı Olarak Özbek Dilinin Diplomatik Fonksiyonu</i>	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O'zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Turk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboyeva Havojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581



<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o'zbek tillari misolida	584
V SHO'BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Seyhan Tanju</i>	Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O'zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Rahimi Farhad</i>	Nezrali'nin Çağatay Türkçesi Sözlüğünün Yanlışıları Üzerine	611
<i>Jafarzade Vahide</i>	Mustafa Zəririn "Siyərün-nəbi" əsəri haqqında bəzi qeydlər	640
<i>Muhammadiyahva Dilafrö 'z</i>	"Boburnoma" parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo'ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo'janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning "Sab' ai sayyor" asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	"Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan mənəbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn "Yüz hədis və yüz hekayə" əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	"Qo'noq" umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O'razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o'rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay,	711



	Görge Bay)	
<i>Hamishog'lu Meryem</i>	Türkçenin İlk Sözlüğü Dîvânu Lugâti't-Türk'ten Özbek Türkçesine Bitki Adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o'rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O'zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o'simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o'rganish obyekti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug'otit turk”dagi o'z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O'tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba'in she'rlarda “hayit” so'zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Siddiqova Naimaxon</i>	Eskirgan so'zlarning eskirmagan ma'nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	“Kitabi-Dədə Qorqud” matnlərində qadin-kishi müraciət formalarinin üslubi, linqvistik və psixolinqvistik tahlili	766
<i>Turdiyeva Roza</i>	O'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	774